O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

"TASDIQLAYMAN"

__________BuxDU rektori
O.X.Xamidov

____________________
_________avgust 2023 y.

# "ADABIYOTSHUNOSLIK NAZARIYASI"

## FANINING O`QUV DASTURI

| | |
|---|---|
| Bilim sohasi: | 200000 – San`at va gumanitar soha |
| Ta’lim sohasi: | 230000 – Tillar |
| Ta’lim yo‘nalishi: | 60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) |

BUXORO-2023

| Fan/modul kodi | | | O‘quv yili | Semestr | ECTS – Kreditlar | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| AN1,4-10 | | | 2023-2024 | 1 (kuzgi) | 5 | |
| **Fan modul turi** | | | **Ta’lim tili** | | **Natijadagi soatlar** | |
| Majburiy | | | O‘zbek | | 4 | |
| **1.** | **2-semestr** | **Fanning nomi** | **Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)** | | **Mustaqil ta’lim (soat)** | **Jami yuklama (soat)** |
| | | **“Adabiyotshunoslik nazariyasi”** | *60 soat* | | *90 soat* | *150 soat* |
| | | **JAMI** | *60 soat* | | *90 soat* | *150 soat* |

**2.**

**I. Fanning mazmuni –**

“Adabiyotshunoslik nazariyasi” fani adabiyotning jamiyat ijtimoiy hayotidagi o‘rni, adabiyotning ma’naviy-ma’rifiy ahamiyati, adabiyotning turli fanlar va san’atning boshqa turlaridan farqi, adabiy turlar va janrlar, ijodkorlarning o‘ziga xos uslubi kabilar to‘g‘risida ma’lumot beradi.

“Adabiyotshunoslik nazariyasi” fanining ahamiyati ijtimoiy hayot va adabiyotni tushunish, badiiy asarlar estetik darajasini aniqlash, adabiy qahramon va real hayot kishisi o‘rtasidagi farqlarni ajratish kabilar bilan belgilanadi.

Mazkur fanni o‘qitishning asosiy maqsadi – badiiy asarni tahlil qilish uchun yo‘llanma berish, badiiy matnni chuqur va turli metodlar asosida talqin qilish, jahon adabiyotshunosligidagi adabiyotshunoslik metodlarining ichki imkoniyati va cheklanganlik tomonlarini barcha adbiy tur hamda janrlar bo‘yicha yozilgan ilmiy asarlar misolida asoslab o‘rganish, umuman adabiyotshunosning ilmiy-estetik tafakkurini shakllantirish ushbu fanning asosiy maqsadi sanaladi.

**II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg`ulotlari).**

**1-mavzu: Adabiyotshunoslik – badiiy adabiyot to‘g‘risidagi fan**

Adabiyotshunoslik fanining maqsad va vazifalari. Badiiy asar – adabiyotshunoslik obyekti. Adabiyotshunoslikning tarkibiy qismlari: adabiyot tarixi, adabiyot nazariyasi, adabiy tanqid, matnshunoslik, manbashunoslik. Adabiyotshunoslik va adabiy jarayon. Hayot va san’at. San’at turlari. Adabiyot – so‘z san’ati. Inson – adabiyotning asosiy obyekti.

## 2-mavzu:Adabiyotshunoslik tarixi

Qadimgi davr adabiyotshunosligi. Arastu – adabiyotshunos. Sharq adabiyotshunosligi: ilmi aruz, ilmi qofiya, ilmi bade'. Tazkiralar – Sharq adabiyotshunosligi muhim manbasi. G'arb adabiyotshunosligi. Bualo, Belinskiy tadqiqotlari. Gegel "Estetika"si. Adabiyotshunoslik rivojida matbuotning o'rni. Adabiyotshunoslikning estetik did va ijtimoiy fikr o'sishiga ta'siri.

## 3-mavzu: Badiiy asar.

Badiiy asar va ilmiy asar. Ijtimoiy hayot va badiiy asar. Xalq og'zaki ijodi – badiiy adabiyot ibtidosi. Folklor namunalari va yozma adabiyot. Matn – asar asosi. Badiiy asar tarkibiy qismlari. Epik turga mansub asarlarning tuzilishi. Lirik (she'riy) turga oid asarlar tarkibining o'ziga xosliklari. Drama turidagi asarlarning tarkibi.

## 4-mavzu: Badiiy asar mavzusi

Mavzu – badiiy asarda e'tibor qaratilgan muayyan voqelik. Hayot voqeligi – badiiy asarlar **uchun asosiy mavzu. Adabiyotdagi abadiy va davriy mavzular. Mavzuning yoritilishi. Badiiy asar u**chun tarixiy voqelik va zamonaviy hayot muammolarining mavzu qilib olinishi.

## 5-mavzu: Badiiy asar kompozitsiyasi.

Badiiy asarda shakl va mazmun. Kompozitsiya – badiiy asar tarkibiy qismlarining o'zaro bog'liq joylashishi. Badiiy asar kompozitsiyasi va arxitektonikasi. Adabiy qahramon portreti. Peyzaj. SHe'riy asarlar kompozitsiyasi. Epik asarlar kompozitsiyasi. Sharq va G'arb she'riyatining o'ziga xos xususiyatlari. An'anaviy va modern asarlar kompozitsiyasi. Mumtoz drama, tragediya, komediyalar kompozitsiyasi.

## 6-mavzu: Badiiy asar syujeti

Syujet – qahramonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni ifodalovchi, asar mazmunini tashkil etuvchi voqealarning muayyan tartibda joylashtirilishi. Fabula – biri-biri bilan uzviy bog'liq hayotiy voqealar jamlamasi. Badiiy asarda syujetning o'rni va ahamiyati. Hayot voqeligi – syujet asosi. Syujet tarkibiy qismlari: voqealar tuguni, voqealar rivoji, voqealar avj nuqtasi,



voqealar yechimi. Syujetda badiiy to'qima. Sayyor syujetlar. Xronikal syujetli asarlar. Ko'p tarmoqli syujetli asarlar. Epik, lirik asarlarda syujet. Drama turiga mansub asarlarda syujet.

## 7-mavzu: Adabiy tur va janrlar

Adabiy turlar va janrlarning so'z san'atidagi o'rni va ahamiyati. Arastu "Poetikasi"da adabiy turlar va janrlar to'g'risida. Badiiy asarlar hayot voqeligi va inson obrazini gavdalantirishiga ko'ra epos, lirika, drama turiga ajratilishi. Har bir tur janrlarga bo'linishi. Epos, lirika, drama turidagi asarlarning she'riy yoki nasr yo'lida yozilishi. Folklor va yozma adabiyotdagi janrlar. .

## 8-mavzu: Badiiylik – adabiyotning asosiy xususiyati.

Badiiylik – san'at asosi. Tabiatdagi go'zallik va san'atdagi go'zallik. Badiiy adabiyotda hayot voqeligi va inson obrazi so'z orqali nafis tasvirlanishi. Badiiylik – asar mazmuni va shaklining mutanosibligi, uslubining ravonligi, komponentlarining o'zaro uyg'un kelishi, tilining jozibadorligi kabi omillar jamlamasi. So'z-adabiyotning asosiy quroli. Badiiy asar matnida so'z. Badiiylik – obrazlilik. Obraz, obrazlilik, ramz, majoz. Badiiylik – ijodkor mahorati mezoni. Badiiylikning epik, lirik asarlarda namoyon bo'lishi. Drama turidagi asarlarda badiiylikning aks etishi.

## 9-mavzu: Badiiy asar tili

Badiiy asar tili va ilmiy asar tili. Obrazlilik – badiiy asar tili asosi. Badiiy san'atlar: ma'naviy, lafziy san'atlar. Muallif nutqi. Qahramon nutqi: dialog va monolog. Zamon va makon tasviri. Personajlar portreti tasviri.

## 10-mavzu: Obraz – insonning adabiyotdagi umumlashma tasviri ( 2 soat)

Obraz – san'atga xos hodisa. Adabiyotda obrazning aks etishi. Inson – adabiyotdagi asosiy obraz. Obraz – adabiy qahramon. Asardagi asosiy va boshqa qahramonlar. Personaj, xarakter, tip. Realistik va romantik, fantastik va majoziy obrazlar. Portret – inson obrazini gavdalantirishning muhim unsuri.

## 10-mavzu: She'r tuzilishi

She'r va nasr. She'riy nutqning o'ziga xos xususiyatlari. She'rning tarkibiy qismlari: misra, band, ritm, bo'g'in, turoq, vazn, qofiya. She'r tizimlari: aruz, barmoq. Erkin, sarbast, oq she'r. Sharq adabiyotidagi she'riy janrlar. G'arb adabiyotidagi she'riy janrlar. Aruz – Sharq mumtoz she'riyatidagi asosiy tizim. Aruz – qisqa, cho'ziq va o'ta cho'ziq hijolarning muayyan tartibda guruhlanib takrorlanib kelishiga asoslangan metrik she'r tizimi. Aruzdagi ritmik birliklar: hijo, rukn, bahr.



REDMI NOTE 11
25/09/2023 14:07

**11-mavzu: Ijodiy metod va ijodkor uslubi. Adabiy jarayon**

Ijodiy metod – hayot hodisalarini tanlash va ularga muayyan dunyoqarash asosida yondashish, talqin qilish yo'li. Realizm va romantizm ijodiy uslubi. Klassitsizm yo'nalishi. Naturalizm, sentimentalizm, syurrealizm yo'nalishi. Ijodkor uslubi. Ijtimoiy hayot adabiyot va san'atning bog'liqligi. Qadimda adabiy jarayon. Adabiy an'ana va novatorlik. Adabiy jarayondagi yetakchi jihatlarning namoyon bo'lishi. Adabiy jarayonning davomiyligi.

**III. Amaliy mashg`ulotlar bo`yicha ko`rsatma va tavsiyalar:**

Amaliy mashg`ulotlar bo`yicha quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Adabiyotshunoslikning tarkibiy qismlari
2. Arastu "Poetika" asari.
3. Fitrat – adabiyotshunos.
4. Og'zaki va yozma adabiyot namunalari tahlili.
5. Badiiy obraz turlari
6. Badiiy asar tilining o'ziga xos xususiyatlari.
7. Ijodiy metod va adabiy oqimlar.
8. Ijodkor uslubi.
9. Badiiy asarni tahlil qilish usullari
10. I.Sulton, M. Qo'shjonov, O.Sharafiddinov – adabiyotshunos olimlar.

**IV. Seminar mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

**Seminar mag'ulotlari uchun tavsiya etiladigan mavzular:**

1. Sharq adabiyotshunosligi: ilmi aruz, ilmi qofiya, ilmi bade'.
2. Adabiyotning tur va janrlarga bo'linishi.
3. Alisher Navoiy g'azallaridagi badiiy san'atlar.
4. Bobur she'rlaridagi she'riy san'atlar.
5. Fitratning "Adabiyot qoidalari" asari tahlili.
6. Cho'lpon she'rlari badiiyati.
7. Oybek – adabiyotshunos.
8. Maqsud Shayxzoda – adabiyotshunos.
9. G'afur G'ulom she'rlarida zamon nafasi.
10. "Jahon adiblari adabiyot haqida" kitobidagi maqolalar tahlili.



**V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

1.Aristotelning «Poetika» asarini o'qib o'rganish

2. Forobiyning «She'r san'ati» asarini o'qib o'rganish.

3. Alisher Navoiyning «Majolis un-nafois» asarini o'qib o'rganish.

4. Alisher Navoiyning «Mezon ul-avzon» asarini o'qib o'rganish.

5. Alisher Navoiyning «Muhokamat ul lug'atayn» asarini o'qib o'rganish.

6. Boburning «Muxtasar» asarini o'qib o'rganish

7. Fitratning «Adabiyot qoidalari», «Aruz haqida» asarlarini o'qib o'rganish

8. U.Normatovning "Qodiriy mo'jizasi" kitobini o'qib o'rganish

12. Y.Ishoqovning "So'z san'ati so'zligi" kitobini o'qib o'rganish

13. O.Sharafiddinovning "Dovondagi o'ylar" kitobini o'qib o'rganish

14. "Sharq mumtoz poetikasi: manba va talqinlar" o'quv qo'llanmasini o'qib o'rganish

**Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni**

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda, quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruza qismini o'zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fan bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- talabaning o'quv, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fan bo'limlari va mavzularni chuqur o'rganish;
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari;
- masofaviy ta'lim.

3.

**V. Ta'lim natijalari/ Kasbiy konpetensiyalari**

**Talaba bilishi kerak:**

"Kadrlar tayyorlashning Milliy dasturi", Davlat ta'lim standartida aks etgan talaba bilimlariga qo'yiladigan talablar asosida shakllantirilgan.

Ushbu fan doirasida talaba:

- badiiy matnni tahlil qilish,
- badiiy asarga estetik baho bera olish,
-adabiy hodisalarni ilmiylik va mantiqiylik asosida o'rganish,



EDMI NOTE 11

| | |
|---|---|
| | -badiiy tafakkur va estetik tasavvurning uyg'unligini ta'minlash,<br>-mustaqil va zamonaviy fikrlash, kundalik faoliyatda badiiy-estetik madaniyatni yuksaltirish,<br>-badiiy va ilmiy tafakkurning yuksak darajadagi ko'nikmalarini hosil qilishdan iborat.<br>ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak;<br>- adabiyotshunoslik metodlari bilan ijodiy metodning farqini o'rgatish;<br>-germenevtikaning metodologik imkoniyatlarini ochib berish;<br>-jahon adabiyotshunoslari, rus va o'zbek adabiyotshunoslarining ilmiy metodlarini ani-lashga o'rgatish.<br>-talabada estetik didni, badiiy so'zni his etish ko'nikmasini hosil qilish;<br>-adabiy-badiiy va ilmiy-estetik idrokni tahlil va tadqiq etish malakasini hosil etishdan iborat.<br>- tanlangan mavzu yuzasidan umumlashma ilmiy xulosalar chiqara bilish malakalariga ega bo'lishi kerak. |
| 4. | **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari**<br>• ma'ruzalar<br>• interfaol keys-stadilar<br>• muammoli vaziyatlar<br>• guruhlarda ishlash<br>• taqdimotlar qilish<br>• individual loyihalar<br>• jamoa bo`lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar |
| 5. | **VI. Kreditlarni olish uchun talablar**<br>Joriy, oraliq nazorat shaklida berilgan topshiriqlarni belgilangan muddatda bajarib boorish, yakuniy nazorat bo`yicha berilgan topshiriqni muvaffaqiyatli bajarish |
| 6. | **Asosiy adabiyotlar:**<br>**Rahbariy adabiyotlar**<br>1.<br>3. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017.<br>4. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2016.<br>5. Мирзиёев Ш.М. Адабиёт, санъат ва маданият яшаса, миллат ва халқ, бутун инсоният безавол яшайди. Ўзбекистон Республикаси Президенти |



| | |
|---|---|
| | Ш.Мирзиёевнинг «Ўзбек мумтоз ва замонавий адабиётини халқаро миқёсда ўрганиш ва тарғиб қилишнинг долзарб масалалари» мавзусидаги халқаро конференция иштирокчиларига йўллаган табриги. www. xabar.uz<br>Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Тошкент: Маънавият, 2008.<br>2. Каримов И.А. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор. – Тошкент: Ўзбекистон, 2009.<br>**Asosiy adabiyotlar:**<br>1. Sultonov I. Adabiyot nazariyasi. –T.: O'qituvchi, 2002.<br>2. T.Boboyev. Adabiyotshunoslik asoslari.- T.: O'zbekiston, 2002.<br>3. Қуронов Д. ва бошқалар. Адабиётшунослик луғати. –Т.: Академнашр, 2010.<br>4. Ulug`ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – T.: G`.G`ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018.<br>5. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – T.: Akademnashr, 2018.<br>6. Quvvatova D., Rajabov D., Rajabova R. Adabiyotshunoslik nazariyasi. O'quv qo'llanma. –Buxoro, 2023.<br>**Qo'shimcha adabiyotlar:**<br>Шарқ мумтоз поэтикаси Ҳамидулла Болтабоев талкинида. –Тошкент: Ўзбекистон энциклопедияси, 2006.<br>**Xorijiy manbalar:**<br>1. Хализев В.Е. Теория литературы. – Москва: Высш.шк., 2000.<br>5. Теория литературы. В2-х т. Т. 1. Бройтман С.Н. Историческая поэтика: учеб.Пособие / Под ред. Н.Д.Тамарченко.– Москва: Академия, 2004.<br>6. Теория литературы. В 2-х т. Т. 2: Учеб. пособие. Бройтман С.Н. Историческая поэтика /Под ред. Н.Д.Тамарченко.– Москва: Академия, 2004.<br>**Elektron manbalar:**<br>1. www.alishernavoiy.uz<br>2. www.ziyo-net.uz<br>3. www.literature.uz<br>4.www.kutubxona.uz |
| 7. | **Buxoro davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan** (BuxDU Ilmiy kengashining 2023-yil 29-avgustdagi 1-sonli bayonnomasi). |
| 8. | **Fan/ modul uchun mas'ul:**<br>**Quvvatova D.X.** – O`zbek tili va adabiyoti kafedrasi professorii, filologiya |



REDMI NOTE 11
25/09/2023 14:06

| | |
|---|---|
| | fanlari doktori. |
| 9. | **Taqrizchilar:**<br>**Hasanov Sh.A.** – Samarqand davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori.<br>**Rajabov D.Z.** – Buxoro davlat universiteti O`zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari doktori. |



REDMI NOTE 11 25/09/2023 14:06